

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA FE'L SO'Z TURKUMINI O'RGANISHDA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNING TA'MINLANISHINI TAHLIL QILISH

Norboyeva Gulshan Vahob qizi

[norboyevagulshan2@gmail.com](mailto:norboyevagulshan2@gmail.com)

Baltabayeva Yulduzzon Ruzimboy qizi

[baltabayevayulduz2003@gmail.com](mailto:baltabayevayulduz2003@gmail.com)

Esanova Ro'shana Qurbanazarovna

[isanovarushana@gmail.com](mailto:isanovarushana@gmail.com)

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim 3-bosqich 2-bt-21-guruh talabalari

**Annotasiya:** Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarga so'z turkumlarini o'rganish va "Fe'l" so'z turkumini o'qitishdagi interfaol metod va usullar ko'rib chiqilgan. Fe'l so'z turkumining sinflar kesimida uzviyligini ko'rib chiqish va ularni tahlil qilish.

**Kalit so'zlar:** So'z turkumlari, shaxs-son va zamon qo'shimchalari, fe'l, tub va yasama, fe'l nisbatlari, sodda va qo'shma fe'llar, fe'lning ma'noviy guruhlari. "Narsa va shaxs harakatini bildirgan so'zlar".

Boshlang'ich sinflarda "Fe'l" mavzusi 1 – sinfdan boshlab o'tiladi. Mazkur mavzuga sinfda (so'zlarning ma'nosi) mavzusiga jami 23 soat ajratilgan bo'lib, bunda qo'yilgan bilim ko'nikma va malakalar quyidagilardan iborat.

O'quv yilining oxiriga kelib o'quvchi quyidagilarni bilishi kerak.

So'zlarning ma'nolariga ko'ra guruhlanishi. ko'nikmalarni egallashi kerak; talaffuzi va yozilishi mos bo'lgan so'zlarni to'g'ri yoza olishi, malakalarga ega bo'lish kerak.


**Topshiriq. Rasmlarga mos harakatni bildiradigan so'zlarni toping va yozing.**



**Topshiriq. Harakatni bildirgan so‘zlarni toping.**



Rasmda narsalarning nomlarini aytgan holda harakatlantiramiz. Rasmlarni ko’rsatgan holda. Ulardan javob olamiz.



Bolalar aytadi.

Baliq suzadi. Kapalak uchadi. Qaldirg`och uchadi. Ko`z ko`radi.

To`g`ri javob berdingiz bolalar.

Bundan kelib chiqqan holda yangi mavzuni bemalol o`tsak bo`ladi.

Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlar Nima qildi ?Nima qiladi ? Nima qilayapdi ? kabi so‘roqlarga javob bo’ladi. Nima qildi ?-uchdi, oqdi.Nima qiladi ?-uchadi, oqadi, Nima qilayapdi ?-uchyapdi, oqyapdi.

Mavzuni yana bir bor mustahkamlab mashqni bajarishga o’tamiz.

2 – sinfda “Fe’l” mavzusi huddi 1 – sinfdagidek so’z mavzusi o’tiladi. Bu mavzuga 2 – sinfda 54 soat ajratiladi. O’quvchilar bilan, bilim ko’nikma va malakasiga qo’yilgan talablar quyidagilar:

So’zlar yordamida gap tuzish va yozilishni.

Berilgan mavzuga doir gap tuza olishni,o’quvchi quyidagilarni uddalay olishi zarur.

So’zni, gapni va matnni, harflarni tushirib qoldirmay, ortiqchasini qo’shmay, o’rnini almashtirmay husnixat qoidalariga rioya qilgan holda ko’chirib va eshitib to’g’ri yozish.

4 – 5 bo’g’inli so’zlarning bir yo’lga sig’may qolgan qismini keyingi yo’lga bo’g’inlab ko’chirish;

kitob, maktab, oftob, odob, ozod kabi so’zlar oxirida kelgan b va d yozilishini;

farzand, xursand, baxt, do’st kabi o’quvchi nutqida ko’p uchraydigan.

so’zlarga so’roq bera olishni va shu so’z nimani bildirishini;

fe’l mavzusiga oid 2 – 3 gap tuza olish va uni yozilishi;

rasmlar asosida 5 – 6 fe’l qatnashgan gap tuza olish va uni yoshni; 3 sinfda fe’l “so’z turkumi” sifatida o’rgatilib, o’quvchining bilim, ko’nikma va malakasini shakllantiradi.

## Bolalar uchun mustahkamlovchi mashqlar.



Quyidagi rasmga qarab avval narsalarni bildiruvchi so’zlarni topamiz.

Bolalar aytadi. Daraxt, quyosh, suv, o’tlar.

To’g’ri aytdingiz. Ana endi biz shu so’zlarni harakatni bildiruvchi so’zlar bilan birgalikda aytamiz.

- Daraxt nima qiladi?
- Daraxt o’sadi.
- Quyosh nima qiladi?
- Quyosh chiqadi.
- Suv nima qiladi?
- Suv oqadi.
- O’tlar nima qiladi?
- O’tlar o’sadi.

To`g`ri aytdingiz bolajonlar.

Fe`l bo`lishli va bo`lishsiz fe`llarni, fe`l yasovchi qo`sishchalarini. Ko`nikmalarni egallashi kerak.

- ma bo`lishsizlik fe`l hosil qiluvchi qo`sishchalarini to`g`ri yoza olishni so`z yasovchi qo`sishchalar asosida fe`l turkumini yasay olishni, malakani egallashi kerak. Fe`l mavzusi doirasida 5 – 6 gapli bog`lanishli gap tuza olishi va ma`lum tayyorgarlikdan so`ng uni yoza olishi;

Nutq madaniyatni og`zaki va yozma nutqda fe`l so`z turkumiga tegishli bo`lgan so`zlarni ifodalashni o`rganishi;

4 – sinfda “Fe`l” mavzusiga jami 28 soat ajratilgan bo`lib, bunda o`quvchining ko`nikma va malakasiga qo`yilgan talablar quyidagilardan iborat.

- So`z turkumlari, ularning belgilarini, ko`makchilarni egallashi kerak;
- fe`l, fe`l zamonlarini (o`tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon);
- fe`l zamon qo`sishchalarini, ularning imlosi;
- fe`lning tuslanishi;
- fe`llarning 3 zamoni va ularning hosil qilinishi: shaxs – songa tuslanishi: Malakani egallashi kerak.
- gaplarning elementar sintaktik tahlil qilish;
- o`rganilgan qoidalarga oid 80 – 90 so`zli matnni husnixat qoidalariiga rioya qilgan holda ko`chirib va eshitib yoza olishi;
- berilgan matnga mustaqil reja tuzish, qayta hikoyalash va yozma bayon qilishi.
- berilgan mavzu yoki rasm asosida kichik matn tuzib, yoza olishi;

Fe`llarni shaxs – son. Fe`l zamonlari ularning gapdagisi vazifasini o`rganish.

Fe`llar shaxs – son qo`sishchalarini oladi. Tillarning shaxs – son qo`sishchalarini bilan o`zgarishi tuslanish deyiladi. Masalan, o`qidim o`qiyapmiz, o`qiding, o`qiyapman, o`qiyapti, o`qidingiz. Fe`llaridagi ajratib ko`rsatilgan qo`sishchalar shaxs – son qo`sishchalarini (tuslovchi qo`sishchalar) dir.

Fe`llarda uch shaxs – son (I shaxs, II shaxs, III shaxs) va 2 son (birlik va ko`plik) bor. Fe`ldagi har bir tuslovchi qo`sishcha ham shaxs, ham sonni ko`rsatadi. Masalan, o`qidim fe`lidagi – m qo`sishchasi I shaxs birlikni, o`qiyapsan fe`ldagi – son qo`sishchasi II shaxs birlikni ko`rsatuvchi shaxs – son qo`sishchalaridir.

Shaxslar

Birlik

Ko`plik

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUN,2024

I shaxs - m: tayyorladim - k: tayyorladik

- man: yozmoqchiman - miz: yozmoqchimiz

II shaxs - ng: tayyorlading - ingiz: tayyorladingiz

- san: yozmoqchisan. - siz: yozmoqchisiz

III shaxs - tayyorladi - (lar) tayyorladilar

- yozmoqchi - (lar) yozmoqchilar

- ishlayapti - (lar) ishlayaptilar.

Fe'llarda uch zamon bor:

1) o'tgan zamon


2) hozirgi zamon

3) kelasi zamon

Fe'l zamoni nutq so'zlanib turgan vaqt (payt) ga nisbatan belgilanadi (aniqlanadi). Masalan: o'qidim, o'qigansan, harakatning nutq so'zlanib turgan vaqtidan oldin bajarilganligini bildiradi, shuning uchun ular o'tgan zamon fe'li sanaladi: o'qiyapman, o'qimoqdasan fe'llari harakatning nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotganini bildiradi, shuning uchun bu fe'llar hozirgi zamon fe'li hisoblanadi: o'qimoqchisan, o'qimoqchiman fe'llari harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajarilishini bildiradi, shuning uchun ular kelasi zamon deyiladi.

**“Guruhini toping” ta’limiy o'yini.**

Bu o'yinda o'quvchilarga so'zlar yozilgan tarqatmalar beriladi. Berilgan so'zlar qaysi zamonga tegishli ekanligini o'quvchilar topib yozadilar.



Fe'llarda zamon ma'nosi maxsus qo'shimchalar vositasida ifodalanadi. Fe'lga qo'shiladigan – di, - gan, - yop, - moqda, - moqchi qo'shimchalari zamon

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUN,2024

qo'shimchalaridir. Zamon qo'shimchalari fe'lga tuslovchi (shaxs - son) qo'shimchalardan oldin qo'shiladi.

**Topshiriq.**

**Chiziqlar o'rniga berilgan fe'llardan mosini qo'yib yozing.**

Bahor \_\_\_\_\_.

Ko'kda qora bulutlar \_\_\_\_\_.

Yomg'ir \_\_\_\_\_.

**Foydalanish uchun kalit so'zlar:** Yog'di.Keldi.Quyuqlashdi.

O'quvchilarga mavzuni mustahkamlovchi savol va topshiriqlar beriladi.

1.Quyida berilganlardan fe'llarni toping?!

- a)keldi,o'qidi,yugurdi
- b)kitob,daftар,non
- c)qizil,chiroyli,shirin

2.Hozirgi zamon fe'llarini toping?

- a)kuldi,yig'ladi,bordi
- b)kulyapti,yig'layapti,boryapti
- c)kuladi,yig'laydi,boradi

3.O'tgan zamon fe'llarini toping?

- a)yozadi,keladi,o'qiydi
- b)yozdi,keldi,o'qidi
- c)yozyapti,kelyapti,o'qiyapti

4.Kelasi zamon fe'llarini toping?

- a)yugurdi,chizdi,uchdi
- b)yuguradi,chizadi,uchadi
- c)yuguryapti,chizyapti,uchyapti.

# PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUN, 2024

Biz bu mashqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida fe'l so'z turkumi haqidagi bilimlarini oshirish va zamon shakllari haqida tushunchalarni egallashlariga yordam beramiz.

## Foydalanimanadabiyotlar:

- 1.Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf Darslik. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent 2022, Navoiy ko'chasi, 2a. "O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturi" ishchi guruhi a'zolari: Ph.D., Gulshan Mamatova, Dilnoza Baynazarova va boshqalar.
2. Ona tili va o'qish savodxonlig 2-sinf Darslik. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent 2022, Navoiy ko'chasi, 2a. "O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturi" ishchi guruhi a'zolari: Ph.D., Gulshan Mamatova, Dilnoza Baynazarova va boshqalar.
- 3.Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf Darslik. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent 2022, Navoiy ko'chasi, 2a. "O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturi" ishchi guruhi a'zolari: Ph.D., Gulshan Mamatova, Dilnoza Baynazarova va boshqalar.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi 4-sinf Darslik.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent 2022, Navoiy ko'chasi, 2a. "O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturi" ishchi guruhi a'zolari: Ph.D., Gulshan Mamatova, Dilnoza Baynazarova va boshqalar.